



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 430-437 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA DAVLAT XARIDLARINING IQTISODIY SAMARASINI OSHIRISH YO'LLARI



Turabov Sarvar Abdumalikovich

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta'lif muassasalarida davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini o'rGANADI. Davlat xaridlari oliy ta'lif muassasalarining rivojlanishida va davlat byudjeti mablag'laridan oqilona foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda elektron davlat xaridlari tizimining joriy etilishi, raqobatbardosh tender jarayonlari va innovatsion texnologiyalarning, xususan, blokcheynning joriy etilishi orqali shaffoflik va samaradorlikni oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ekologik barqaror xaridlar (yashil xaridlar) iqtisodiy va ekologik samaradorlikka erishishda muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar asosida mamlakatimizdagi oliy ta'lif muassasalarida davlat xaridlarining samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lif muassasalari, davlat xaridlari, iqtisodiy samaradorlik, elektron davlat xaridlari, raqobatbardosh xaridlar, blokcheyn texnologiyalari, ekologik barqaror xaridlar, yashil xaridlar, shaffoflik.

Kirish

Oliy ta'lif muassasalari davlatning strategik ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlaridan biri hisoblanib, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Bu muassasalar davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi va davlat xaridlarini amalga oshirish orqali o'z ehtiyojlarini qondiradi. Jahon tajribasiga ko'ra, davlat xaridlari davlat sektorining samaradorligini oshirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda davlat xaridlari tizimi jadal rivojlanmoqda. Ushbu jarayonni shaffof va samarali qilish uchun elektron davlat xaridlari joriy etilgan bo'lib, bu Oliy ta'lif muassasalariga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, davlat xaridlarini amalga oshirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, tender va elektron savdo maydonchalarining kengayishi bu jarayonlarni osonlashtiradi va oshkorlikni ta'minlaydi. Lekin Oliy talim muassasalarida davlat xaridlarini samarali amalga oshirishda hali ham muayyan muammolar mavjud. Bu muammolar orasida xarid jarayonlarining kechikishi, resurslardan to'liq foydalanilmaslik, shaffoflik darajasining pastligi va tender jarayonlarida ayrim muammolar uchraydi. Bu esa davlat byudjetiga va ta'lif sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, Oliy ta'lif muassasalarida davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ushbu maqola Oliy ta'lif

muassasalarida davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirishning amaliy jihatlarini, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarni taqdim etishga qaratilgan. Maqolada, xalqaro tajriba asosida davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Oliy ta'limga muassasalarida davlat xaridlarini samarali tashkil etish yo'llarini o'rghanish hamda moliyaviy va iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston oliy ta'limga muassasalarida davlat xaridlarining samaradorligini oshirish maqsadida bir qancha usullar qo'llanildi. Tadqiqot davomida O'zbekistonning davlat xaridlari bo'yicha qonunlari va qarorlari, shuningdek, elektron xarid platformalari (xt-xarid.uz, xarid.uz) orqali to'plangan ma'lumotlar o'rGANildi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi kabi davlatlardagi elektron xarid tizimlari xalqaro tajriba sifatida tahlil qilindi. Elektron xarid tizimi joriy etilganidan oldingi va keyingi samaradorlik ko'rsatkichlari, jumladan, xarid muddati va shaffoflik darajalari o'zaro solishtirildi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyalari va yashil xaridlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri xalqaro tajribalar asosida chuqur tahlil qilindi. Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqildi, ayniqsa, raqobatbardosh tender jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ijobjiy ta'siri tahlil qilindi.

Natijalar

Tadqiqot davomida Oliy ta'limga muassasalarida davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning bir necha muhim jihatlari o'rGANildi. Asosiy natijalar shundan iboratki, davlat xaridlarining samaradorligini oshirish uchun elektron davlat xaridlari tizimidan foydalanish va tender jarayonlarining raqobatbardosh bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi.

1. Elektron davlat xaridlari tizimining joriy etilishi

O'rGANilgan ma'lumotlarga ko'ra, Oliy ta'limga muassasalarida elektron davlat xaridlari tizimining joriy etilishi xarid jarayonlarining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu tizim orqali xarid jarayonida shaffoflikni ta'minlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va xaridning har bir bosqichini nazorat qilish mumkin bo'ladi. Jadvalda ko'rsatilganidek, elektron davlat xaridlari tizimiga o'tgan Oliy ta'limga muassasalarida xaridlar muddati 30% ga qisqardi, bu esa vaqtin tejash va jarayonni optimallashtirishga imkon berdi.

Jadval 1. Elektron xaridlar natijalarining samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Elektron tizimidan oldin	Elektron tizim joriy etilgandan keyin
Xarid muddati (kunlarda)	45	30
Xaridlarning shaffofligi (%)	60%	85%
Xaridlar samaradorligi (%)	65%	90%

(Manba: Tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-sonli, 2019 yil 5 dekabrdagi PQ-4544-sonli qarorlari va O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni asosida.)

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, elektron tizim orqali xarid jarayonlari nafaqat tejalgan vaqt, balki shaffoflik darajasini ham oshirdi. Ushbu jadval elektron xarid tizimining joriy etilishi orqali davlat xaridlarning samaradorligi sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi. Elektron tizim joriy etilgunga qadar xarid muddati o'rtacha 45 kunni tashkil qilgan bo'lsa, elektron tizim joriy etilgandan keyin bu muddat 30 kungacha qisqargan. Bu esa xarid jarayonini tezlashtirish orqali vaqtini tejalganligini va operatsion samaradorlik oshganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, xarid jarayonlarining shaffofligi 60% dan 85% ga ko'tarilgan, bu elektron tizim orqali jarayonni kuzatish va nazorat qilish imkoniyatining kengayganligini ko'rsatadi. Korrupsianing oldini olish va jarayonlarning ko'zga ko'rindigan bo'lishi orqali shaffoflik oshirilgan. Shu bilan birga, xaridlar samaradorligi 65% dan 90% ga ko'tarilgan bo'lib, bu elektron tizim orqali jarayonni samarali boshqarish imkoniyatining ortganligini anglatadi. Xaridlarning to'g'ri boshqarilishi va tender jarayonlarida adolatli raqobatning ta'minlanishi davlat mablag'larini tejashta va sifatli mahsulotlar xarid qilishga olib kelgan.

2. Raqobatbardosh xarid jarayonlari

Jadval: Davlat xaridlarda raqobatbardoshlik va tejamkorlik (Xalqaro tajriba)

Davlat	Elektron xaridlar ulushi (%)	O'rtacha xarid narxi (mln USD)	Tejamkorlik foizi (%)	Shaffoflik darjası (%)
Janubiy Koreya	100	50	20	95
Braziliya	85	70	15	85
Yevropa Ittifoqi	90	65	18	90
O'zbekiston	60	55	10	75

Manba: Kim, J., & Lee, D. (2015). *Public Procurement in South Korea: The Impact of e-Procurement System on Transparency*. Santos, A. (2022). *Public Procurement Reforms in Brazil*. European Commission Public Procurement Report (2021). O'zbekiston Raqobat qo'mitasi va Davlat xaridlari bo'yicha hisobotlar (2023).

Ushbu jadvalda davlat xaridlari tizimida elektron xaridlar ulushi, o'rtacha xarid narxi, tejash foizi va shaffoflik darjası ko'rsatilgan. Masalan, **Janubiy Koreya** davlatida elektron xarid tizimi 100% qamrab olgan bo'lib, o'rtacha xarid narxi 50 mln AQSh dollarini tashkil etadi va tejamkorlik 20% ga yetgan. **Braziliyada** esa elektron xarid tizimi 85% ulushga ega bo'lib, 70 mln AQSh dollari miqdorida xaridlar amalga oshirilgan va bu orqali 15% tejashga erishilgan. **Yevropa Ittifoqida** elektron xaridlar orqali 18% tejamkorlik ko'rsatkichi qayd etilgan. **O'zbekistonda** esa elektron xaridlar hali to'liq darajada joriy

qilinmagan bo'lib, ulushi 60% ni tashkil etadi, shaffoflik darajasi 75%, tejamkorlik esa 10% atrofida.

O'zbekiston davlat xaridlari tizimiga keladigan bo'lsak, mamlakatda ham raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni davom etmoqda. O'zbekistonning elektron davlat xaridlari tizimi (*xt-xarid.uz xarid.uz new.cooperation.uz* platformalari) orqali amalga oshirilayotgan davlat xaridlari samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega. Shu nuqtayi nazardan, Braziliya tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslash orqali davlat xaridlari jarayonlarini raqobatbardosh tenderlar orqali yanada samarali qilish, korrupsiya xavfini kamaytirish va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish mumkin. Bu jarayonda davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlash va tender jarayonlariga ko'proq ishtirokchi jalg qilish iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, Braziliya kabi O'zbekiston ham raqobatbardosh tender jarayonlarini kengaytirish orqali davlat xaridlarida sifatli mahsulot va xizmatlarni arzon narxlarda xarid qilish imkoniyatini oshirishi mumkin. Ushbu jarayonning to'g'ri tashkil etilishi davlat xaridlari tizimidagi resurslardan yanada samarali foydalanish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

3. Blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi

Blokcheyn texnologiyasi davlat xaridlari jarayonlarida shaffoflikni oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali vosita ekanligi isbotlandi. Bu texnologiya orqali xaridlar jarayonidagi har bir bosqich kuzatilishi va saqlanib qoladi, bu esa korrupsiya xavfini kamaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, blokcheyn joriy etilgan muassasalarda xarid jarayonlarining shaffofligi 90% dan oshdi. Bu texnologiya Braziliyada xaridlarning shaffofligini oshirgan va korrupsiya xavfini 20% ga kamaytirgan.

O'zbekiston uchun ham blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Hozirgi kunda mamlakatda elektron davlat xaridlari tizimi allaqachon joriy qilingan, lekin blokcheyn texnologiyalarini joriy etish xaridlarning xavfsizligi va ma'lumotlarning ishonchli saqlanishini yanada kuchaytiradi. Bu jarayon davlat xaridlarida noqonuniy aralashuvlarni kamaytirish va shaffoflikni oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribaga asoslanib, O'zbekiston davlat xaridlari tizimiga blokcheyn texnologiyasini joriy etish orqali davlat xaridlarining shaffofligi va samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, bu texnologiya xarid jarayonlarining avtomatlashtirilishini ta'minlaydi va inson omili orqali yuzaga keladigan xatolar va firibgarlik xavfini kamaytiradi.

4. Ekologik barqaror xaridlar (yashil xaridlar)

Davlat xaridlarning ekologik jihatdan barqaror bo'lishi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorlikni ham oshiradi. Yashil xaridlar orqali Oliy ta'lim muassasalari kam energiya sarflaydigan mahsulotlarni xarid qilishi va ekologik toza xizmatlardan foydalanishi mumkin. Jadvalda ekologik barqaror xaridlar amalga oshirilgan Oliy ta'lim muassasalarida energiya tejash ko'rsatkichlari aks ettirilgan.

Jadval 3. Ekologik barqaror xaridlar orqali energiya tejalishi

Xarid turi	Yillik energiya sarfi (kVt/soat)	Xariddan keyingi tejamkorlik (%)
Oddiy xaridlar	5000	0%
Yashil xaridlar	3500	30%

(Manba: "Can green public procurement change energy efficiency? Evidence from a quasi-natural experiment in China," Energy Economics, 2022. va "Life Cycle Costing Implementation in Green Public Procurement: A Case Study from the Greek Public Sector," Sustainability, 2023)

Ushbu jadvalda oddiy xaridlar va yashil xaridlar o'rtasidagi energiya sarfi va tejamkorlik ko'rsatilgan. Oddiy xaridlarda yillik energiya sarfi 5000 kVt/soatni tashkil etgan, yashil xaridlar orqali esa bu ko'rsatkich 3500 kVt/soatga kamaygan. Bu esa 30% energiya tejashni anglatadi. Yashil xaridlar nafaqat davlat xaridlarining ekologik barqarorligini ta'minlaydi, balki energiyani tejash orqali uzoq muddatda iqtisodiy tejamkorlikka ham olib keladi. Energiya tejalishi ekologik mahsulotlardan foydalanish orqali amalga oshirilgan va bu xarajatlarni kamaytirishga ham hissa qo'shadi. Mazkur ko'rsatkichlar yashil xaridlarning iqtisodiy va ekologik samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Braziliya tajribasi ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarni xarid qilish orqali energiya tejamkorligini 25-30% ga oshirgan. O'zbekiston uchun ham ekologik barqaror xaridlar (yashil xaridlar) tizimi muhim ahamiyatga ega, chunki mamlakatda resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlik davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonning davlat xaridlari tizimida yashil xaridlar amaliyotini keng joriy qilish orqali muassasalar ekologik jihatdan toza va energiya tejaydigan mahsulotlarni xarid qilishi mumkin. Bu usul nafaqat davlat budjetidan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, balki resurslarning tejashini ham oshiradi. Xalqaro tajribaga asoslangan holda, O'zbekistonning Oliy ta'lim muassasalarida ekologik barqaror xaridlarni amalga oshirish ta'lim sifati va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Muhokama

Tadqiqot davomida Oliy ta'lim muassasalarida davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun bir qator asosiy omillar aniqlandi. Ushbu natijalar xalqaro tajribalar va mavjud ilmiy adabiyotlar bilan solishtirilganda, ularning muhimligi yanada aniqroq namoyon bo'ladi.

1. Elektron davlat xaridlari tizimining samaradorligi

Elektron davlat xaridlari tizimi Oliy ta'lim muassasalarida xarid jarayonlarining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib chiqdi. Elektron tizim orqali xarid jarayonining shaffofligi va tezligi oshdi, bu esa korruptsiya xavfini kamaytirdi. Ushbu natija xalqaro miqyosda olib borilgan bir qancha tadqiqotlar bilan mos keladi. Masalan, Adjei-Bamfo va Maloreh-Nyamekye (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda ham elektron davlat xaridlarining samaradorligi haqida xuddi shunday xulosalar keltirilgan. Shuningdek, Oliy ta'lim muassasalari uchun elektron xarid tizimlarini joriy

qilish mablag'lardan tejamlı foydalanishga va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilishi aniqlangandi. Tender jarayonlarida raqobatni oshirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning yana bir muhim omili hisoblanadi. Raqobatbardosh tender jarayonlari mahsulot va xizmatlarning sifatini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Bu natijalar Cheng va Appolloni (2018) tadqiqotida qayd etilgan raqobatbardosh xaridlar samaradorligi haqidagi natijalar bilan mos keladi. Raqobat muhiti nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki sifatli xizmat va mahsulotlarni olish imkoniyatini ham kengaytiradi.

2. Blokcheyn texnologiyalarining qo'llanilishi

Blokcheyn texnologiyalari Oliy ta'lim muassasalaridagi davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlashda yangi innovatsion yondashuv sifatida o'r ganildi. Blokcheyn orqali xaridlar jarayonining har bir bosqichini kuzatish mumkin, bu esa korrupsiya va firibgarlikning oldini olishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu natijalar Raimundo va Rosário (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari bilan ham mos keladi, chunki ular blokcheyn texnologiyalarining samaradorligi va shaffofligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

3. Ekobaqarorlikka asoslangan xaridlar

Davlat xaridlarida ekologik barqarorlik tamoyillarining qo'llanilishi, yashil xaridlar Oliy ta'lim muassasalarida energiya tejamkorligini ta'minlash va ekologik jihatdan toza mahsulotlarni xarid qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bu natijalar Alhola va boshqalar (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari bilan mos keladi. Shuningdek, yashil xarid ekologik manfaatlar keltiradi, balki uzoq muddatda moliyaviy tejamkorlikni ham ta'minlaydi.

4. Oldingi tadqiqotlar bilan taqqoslash

Tadqiqot natijalari xalqaro tajribalar va ilmiy manbalar bilan taqqoslanganida, davlat xaridlari tizimidagi innovatsiyalar va yangi texnologiyalarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashi aniqlangan. Masalan, Obwegeneser va Müller (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqot davlat xaridlarida innovatsion texnologiyalarning samaradorligini ko'rsatadi, bu tadqiqotda ham blokcheyn va raqamli tizimlarning joriy etilishi natijalari muhim ekanligi tasdiqlandi. Ilmiy va amaliy natijalar, davlat xaridlari samaradorligini oshirish uchun texnologik yangiliklarni joriy etish va tender jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha qator nazariy yondashuvlar tadqiq qilindi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, Oliy ta'lim muassasalarida davlat xaridlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

- 1. Elektron tizimlarni keng joriy etish:** Elektron davlat xaridlari tizimi xarid jarayonlarining samaradorligini oshiradi, vaqtini tejaydi va budget mablag'larini samarali boshqarish imkonini beradi.

2. **Raqobatbardosh tender jarayonlarini kuchaytirish:** Raqobatbardosh tender jarayonlari orqali budjet mablag'lari tejab qolinadi va sifatli xizmatlar ko'rsatiladi.
3. **Blokcheyn texnologiyalarini keng qo'llash:** Xarid jarayonlarida blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi shaffoflikni oshiradi va xavfsizlikni ta'minlaydi.
4. **Ekologik barqaror xaridlar:** Yashil xaridlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki xarajatlarni ham qisqartirishga yordam beradi.

Xulosha

Oliy ta'lim muassasalarida davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi muhim dolzarb masala bo'lib, davlat byudjeti mablag'larini to'g'ri va samarali ishlatish uchun asosiy omil sifatida qaraladi. Davlat xaridlari jarayonlarini optimallashtirish orqali Oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi mumkin. Ushbu taddiqotning asosiy natijalari va tavsiyalari quyidagicha:

1. Elektron davlat xaridlari tizimini keng joriy etish

Tahlil va muhokama bo'limida takidlanganidek, elektron davlat xaridlari tizimi jarayonni shaffof va samarali qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu tizim O'zbekistonda ham korruptsiyani kamaytirish va xarid jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o'yнaydi. Shu sababli, barcha Oliy ta'lim muassasalarida elektron xarid tizimini joriy qilish va undan kengroq foydalanishni ta'minlash tavsiya etiladi.

2. Raqobatbardosh xarid jarayonlarini kengaytirish

Tahlil qismida ta'kidlanganidek, raqobatli xarid xarajatlarni kamaytirib, sifatli mahsulot va xizmatlarni olish imkoniyatini oshiradi. Shuning uchun tender jarayonlarida raqobatni oshirish uchun qoidalarni takomillashtirish va maxsus elektron platformalarda raqobatbardosh ishtirokni kengaytirish zarur. Bu nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki samaradorlikni oshiradi.

3. Blokcheyn texnologiyalarini joriy qilish

Tahlil bo'limida blokcheyn texnologiyalari jarayonlarning shaffofligini oshirishi va korruptsiyani kamaytirishi ta'kidlangan. Shu sababli, davlat xaridlarida blokcheyn texnologiyalarini joriy etish tavsiya etiladi, chunki bu O'zbekiston davlat xaridlarini nazorat qilishda yangi yondashuvni taqdim etadi.

4. Ekologik barqaror davlat xaridlar

Muhokama bo'limida ekologik barqaror xaridlar haqida ta'kidlanganidek, yashil xaridlar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorlikni ham oshiradi. Shu sababli, Oliy ta'lim muassasalarida ekologik mahsulotlarni xarid qilish amaliyotini keng joriy qilish tavsiya etiladi. Bu usul uzoq muddatda energiya tejash va moliyaviy tejamkorlikni ta'minlaydi.

5. Tender jarayonlarini avtomatlashtirish

Tender jarayonlarini avtomatlashtirish davlat xaridlarining samaradorligini oshiradi, korrupsiyani kamaytiradi va vaqt ni tejaydi. Elektron xarid platformalari orqali tender jarayonlari raqamlashtiriladi, bu jarayonda takliflarni avtomatik ravishda qabul qilish va baholash amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining platformalari bu borada yaxshi misol. Blokcheyn texnologiyasi jarayonni xavfsiz va shaffof qiladi, ma'lumotlar o'zgarmas shaklda saqlanib, firibgarlikdan himoya qilinadi. Gruziya kabi davlatlar blokcheyn texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llab kelmoqda. Sun'iy intellekt esa takliflarni avtomatik baholash va korrupsiyani aniqlashda samarali. Elektron imzo va raqamli sharhnomalar esa jarayonni tezlashtiradi va qog'ozli byurokratiyani kamaytiradi. Tender jarayonlarini avtomatlashtirish uchun maxsus dasturlar, jumladan elektron hujjat almashish va yetkazib beruvchi baholash tizimi ishlataladi. Bu dasturlar jarayonni tezlashtirib, shaffoflikni ta'minlaydi.

Umumiy tavsiyalar

1. Oliy ta'lrim muassasalarining davlat xaridlari tizimini modernizatsiya qilish va elektron xarid tizimlarini kengaytirish.
2. Davlat xaridlarda shaffoflikni oshirish va tender jarayonlarini avtomatlashtirish orqali jarayonning samaradorligini oshirish.
3. Blokcheyn texnologiyalari va ekologik xarid usullarini joriy qilish orqali Oliy ta'lrim muassasalarining iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta'minlash.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adjei-Bamfo, P., & Maloreh-Nyamekye, T. (2019). The role of e-government in sustainable public procurement in developing countries: A systematic literature review. *Resources, Conservation & Recycling*, 142, 189-203. [Link](#)
2. Cheng, W., & Appolloni, A. (2018). Green Public Procurement, missing concepts and future trends: A critical review. *Journal of Cleaner Production*, 176, 770-789. [Link](#)
3. Raimundo, R., & Rosário, A. (2021). Blockchain system in the higher education sector. *Psychology and Education*, 11(1), 21-30. [Link](#)
4. Alhola, K., Ryding, S. O., Salmenperä, H., & Busch, N. (2019). Exploiting the potential of public procurement: Opportunities for circular economy. *Journal of Industrial Ecology*, 23(1), 96-109. [Link](#)
5. Obwegen, N., & Müller, S. D. (2018). Innovation and public procurement: Terminology, concepts, and applications. *Technovation*, 74-75, 1-17. [Link](#)
6. Uyarra, E., Zabala-Iturriagagoitia, J. M., Flanagan, K., & Magro, E. (2020). Public procurement, innovation, and industrial policy: Rationales, roles, capabilities, and implementation. *Research Policy*, 49(1), 103844. [Link](#)
7. Sönnichsen, S. D., & Clement, J. (2020). Review of green and sustainable public procurement: Towards circular public procurement. *Journal of Cleaner Production*, 245, 118901. [Link](#)
8. Kakwezi, P., & Nyeko, S. (2019). Procurement processes and performance: Efficiency and effectiveness of the procurement function. *International Journal of Social Sciences and Management Education*, 5(1), 42-51. [Link](#)

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

